
TOSHLOQDA «SOG'LOM HAYOT SARI 5000 QADAM» MARAFONI BO'LIB O'TDI

Bugun tuman Markaziy o'yingohida «Sog'lom hayot sari 5000 qadam» shiori ostida ommaviy piyoda yurish marafoni uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

Sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan marafonda aholi vakillari, yoshlar, korxonalar, tashkilot, muassasalar rahbarlari va xodimlari ko'tarinki kayfiyatda ishtirok etdilar.

Marafon ishtirokchilari belgilangan masofani bosib o'tgach, shu maydonda badantarbiya mashqlarini bajarishdi. Yakunda faol ishtirokchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

2023-04-07 13:55:22